



## HADISLAR - HAYOT MAK TABI

Eshchanova Yorqinoy  
UrDU akademik litseyi oliv toifali ona tili  
va adabiyoti fani o'qituvchisi

**Tayanch so'zlar:** hadis, muhaddis, Imom Ismoil al-Buxoriy, Nadim al-Jisr, storyteller, “Al-jome’ as-sahih”.

**Key words:** hadis, muhaddis, Imom Ismoil al-Buxoriy, Nadim al-Jisr, storyteller, “Al-jome’ as-sahih”.

Hadis nima? Hadis islom dinida “Qur'on”dan keyin turadigan manba bo'lib, payg'ambarimizning aytganlari, fe'l-atvorlari, axloqlari, taqrirlari va payg'ambarlikka qadar bo'lgan hamda payg'ambarlik yillaridagi siyratlarini, ya'ni hayot yo'llarini anglatadigan atamadir. Muhammad payg'ambar biror gap aytgan, biror ishni ko'rib yoki qilib man etmagan bo'lsa, bu holat sunnat hisoblanadi. Hadislarda islom dini bilan bog'liq tushunchalar bilan birga chin insoniy fazilatlar ham targ'ib qilinadi. Hadisning bu xususiyati bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Ayniqsa, insonlarning bir-biriga mehr-oqibatlari bo'lishi, ota-onani hurmatlash, halollik,adolat va insof kabi fazilatlarni yorituvchi hadislarni bugungi kun yoshlari orasida tushuntirish, mohiyatini anglashga o'rgatish muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Buning uchun o'tilayotgan darslar davomida muhaddis olimlar va ularning hayotiga oid ma'lumotlar ham berilishi maqsadga muvofiq. Chunki, muhaddislarning hayoti va faoliyati, ularning qanday muhitda katta bo'lgani, qiziqishlari, bajargan ibratli amallari ular yaratgan asarlarni to'g'ri tushunishga,



mohiyatini chuqurroq anglashga yordam beradi, o'quvchilarda muallif shaxsiga hurmat, ajdodlar yodiga ibrat ko'zi boqish hissini shakllantiradi.

Hadislar roviylardan yozib olingan. Hadislar Janob payg'ambarimiz hayotliklarida jamlangan emas. Chunki Janob Rasululloh sahobalarga (atrofidagi yaqinlariga): «Mendan Qur'oni karimdan bo'lak hech narsani yozib olmanglar!» der ekanlar. Faqat ayrim sahobalarga o'z shaxsiy maqsadlari uchun hadislarni qayd qilib borishga ijozat bergen ekanlar. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy, Abu Iso Muhammad ibn Iso at-Termizi, Abu Muhammad Abdulloh ibn Abd ar-Rahmon ad-Dorimiyy as-Samarqandiy o'z umrlarini hadis yig'ish va ularni o'rghanishga bag'ishlaganlar. Ana shunday bir sharoitda o'zining butun bilim va hayotini to'g'ri hadislarni aniqlab, jamlashga sarflagan kishilardan biri xalifa Umar bo'lganlar. Hadis ilmi bilan shug'ullangan kishilarni muhaddislar deb ataganlar. Movarounnahrda birinchi bo'lib hadis to'plamini jamlagan muhaddis — Imom Abdulloh ibn Muborak al-Marvaziyyirlar. Bundan tashqari, Imom Ismoil al-Buxoriygacha 10 ta olim hadis ilmi bilan shug'ullangan. Imom Buxoriyning «Al-Jomi' as-sahih» («Ishonarli to'plam») kitobi — 4 jilddan iborat hadislar to'plami boshqa to'plamlar orasida eng ishonarli va mukammali hisoblanadi.

«Hadis ilmida amir al-mo'miniyn» degan sharaflı nomga sazovor bo'lган Muhammad Imom Ismoil al-Buxoriyning hayotiy faoliyati ham ibratlidir. Uning ota-onasi imonli, insofli va diyonatli kishilar bo'lgan. Otasining ismi Ismoil bo'lib, tijorat bilan shug'ullangan, manbalarda yozilishicha, uning uyiga mehnatsiz bir dirham ham kirgan emas. Muhammad Imom Ismoil al-Buxoriy milodiy 810-yilda Buxoroda tug'ilgan, yoshligidayoq otasidan yetim qolib, qalbi pok, imonli onasi tarbiyasida voyaga yetadi. U bolaligidanoq aql-idrokli, ziyrak, xotirasi kuchli bo'lgan. O'n yoshidan arab tilini va hadislarni qunt bilan o'rgangan. O'n olti yoshida minglab hadislarni yod bilgan, sahib va nosahihga ajrata bilgan. Bilimga chanqoq, ilm-fanlarni o'rghanishga havasi kuchli bo'lib, hadis ilmini alohida qunt bilan o'zlashtirgan. Buxoriy o'n olti yoshida sayohatga chiqadi, Makka va



Madinani ziyorat qiladi. O‘z bilimini oshirish maqsadida Damashq, Qohira, Basra, Kufa, Bag‘dod kabi ilm-fan markazlaridan hisoblangan yirik shaharlarda bo‘ladi. Hadis ilmi bilan birga fiqh ilmidan saboq oladi, yirik olimlar davrasida bahslarda ishtirok etadi, toliblarga dars beradi. Bunday bahs-munozaralar Buxoriy bilan at-Termiziy o‘rtasida ham bo‘lib, u ikki muhaddisning qizg‘in ilmiy va ijodiy muloqotiga aylangan. Muhaddis olim at-Termiziy ham Buxoriy salohiyatini o‘zidan yuqori qo‘ygan.

Al-Buxoriyning aql-zakovati, xotirasining kuchliligi va zehnining o’tkirligi haqida quyidagi rivoyat ham yetib kelgan. Bir kuni Imom Buxoriyni boshqa shaharga ma’ruza uchun taklif qilib, uning qobiliyatini sinamoqchi bo‘ladilar. Yuzta hadisni o‘zgartirib, o‘n kishiga bo‘lib beradilar. Bitta-bittadan hadisni ayttirib: «To‘g‘rimi?» deb so‘raydilar. Imom Buxoriy: «Bilmayman», deb javob qiladi. Shu tariqa hamma hadisni buzib aytib, Buxoriydan «bilmadim» javobini oladilar. Hamma hadis aytib bo‘lingach, Imom Buxoriy so‘z boshlab, har bir kishining aytgan hadisini xuddi o‘ziday qilib aytib, ketidan to‘g‘ri tahlilini aytib beradi. Shu tariqa yuzta hadisni to‘g‘rilab aytib bergenlaridan so‘ng shahar ahli u kishining zehniga, xotirasiga lol qolgan ekan.

Buxoriy umrining oxirigacha Samarqand yaqinidagi Xartang qishlog‘ida yashaydi va og‘ir dardga chalinib, 870-yili shu yerda vafot etadi.

Ma’lumotlarga qaraganda, livanlik shayx Nadim al-Jisr 1956-yili sobiq Sovet Ittifoqini ziyorat qilishga taklif etiladi. Nadim al-Jisr eng avval safarni Imom al-Buxoriy maqbarasi ziyoratidan boshlamoqchi ekanini aytadi. Nadim al-Jisr unga peshvoz chiqqanlar orasidan o‘tib, maqbarani tiz cho‘kkancha tavof etib, shu alfozda ertasi peshingacha Qur’on tilovat etadi. Uning ko‘zlaridan tinmay yosh oqar, hamma bu manzaradan hayratga tushgan ekan. O‘sha voqeanning shohidi Z. Boboxonovning e’tirof etishicha, Shayx Nadim al-Jisr Imom al-Buxori qabri va uning atrofidagi tuprog‘ini vazniga teng oltin barobarida sotib olish istagini o‘tinib bayon qilgan ekan. Mustaqillik sharofati bilan qadriyatlarimiz tiklandi, shular



qatorida muqaddas qadamjolar ham ta'mirlandi. Hozir Imom al-Buxoriyning qabri atrofida katta me'moriy majmua barpo etilib, musulmonlarning ziyoratgohiga aylantirilgan.

Imom al-Buxoriyning yigirmadan ziyod ilmiy asar yozgani ma'lum. «Al jomi' as-sahih» («Ishonchli to'plam») va «Al-adab al-mufrad» («Adab durdonalari») kabi asarlari bizgacha yetib kelgan nodir hadis namunalaridir.

Ular orasida ilm-ma'rifatni targ'ib etuvchi, ota-onani hurmatlash, atrofdagi insonlarga mehr-oqibatli bo'lish, insof vaadolat, riyoxat va ta'magirlilikni qoralash kabi mavzulardagi hadislar ham uchraydiki, bu hadislar yoshlar tarbiyasida muhim o'rinni tutadi. Dars davomida ana shunday hadislardan o'qib tahlil qilinadi.

Hadislarda ilm ko'p yog'gan yomg'irga o'xshatiladi. Ilmni o'rganuvchilar uch toifa bo'ladi, deyiladi. Birinchisi, Olloh ilmini o'rganadi, undan manfaatlanadi, o'zgalarga ham o'rgatadi. Bunday kishini mo'min deydilar. Ikkinci kishi ilmni o'rganib, odamlarga o'rgatadi, ammo o'zi amal qilmaydi. Bunday kishini fosiq deydilar. Uchinchi kishi o'zi ham o'rganmaydi, o'zgalarga ham o'rgatmaydi. Bunday kishini kofir deydilar. Bu hadis tahlilidan o'quvchilar xulosa chiqarib oladilar, ya'ni avvalo ilmni o'rganish, teran tushunish va manfaatlanish, shundan keyin uni o'zgalarga o'rgatish mo'minlikning belgisi ekanini anglaydilar.

Hadislarda onani ulug'lash haqida ko'plab misollar keltiriladi. Shu mavzudagi hadislardan biri "Al-jome' as-sahih" ("Sahih al-Buxoriy") asarida keltiriladi: "Abdulloh ibn Amr rivoyat qiladilar: "Rasululloh sallallohu alayhi vassallam: "Odam qiladirgan gunohi azimlardan biri –ota-onasini haqorat qilmoqdir! " – dedilar. Shunda: "Yo Rasullulloh, odam o'z ota-onasini qanday qilib haqorat qilmog'i mumkin?" – deyishdi. Janob Rasululloh: "Birovning ota-onasini so'kkan odam o'z ota-onasini haqorat qilgan bo'lur", - deb javob berdi.

Bu hadisni tahlil qilamiz. Avvalo, hadis ikki qismidan tuzilgan: sanad va matn. Sanad – hadisning qachon, kim tomonidan aytildi bayonidir. Matn – hadisning mazmunidir. Bu hadisning sanadi "Abdulloh ibn Amr rivoyat qiladilar" qismi



bo'lsa, qolgan qism esa matn bo'lib, unda hadisning mazmuni aks etgan. Bu hadisdan shunday xulosa chiqadi: Birovning ota-onasini ham so'kmaslik kerak, chunki o'zingizning ota-onangizni haqorat qilgan bo'lasiz.

Hadislarning turkiy adabiyotga ta'siri kuchli bo'ldi. Yusuf Xos Hojib, Mahmud Koshg'ariy, Ahmad Yugnakiy, Lutfiy, Jomiy, Navoiy asarlarida hadislarda aks etgan mavzular davom ettirildi. Alisher Navoiyning "Arbain" ("Chihil hadis") asarida hadislarning go'zal talqinini ko'rish mumkin. Ayniqsa, mustaqillik davriga kelib, milliy qadriyatlarimizga munosabat, insonparvarlik xususiyatlarini ulug'lash va o'rganishga alohida e'tibor berildi. Hayotdagi bu o'zgarishlar Erkin Vohidovning qator she'rlarida, Abdulla Oripovning hadislardan iborat "Haj daftari" she'riy to'plamida hikmatomuz hadislar talqini o'z aksini topdi va kitobxonlarga manzur bo'ldi. Ko'rindiki, hadislarning asosida komil inson bo'lishga da'vat, muloyimlik va yaxshi axloqli bo'lish, bemehrlik va baxillikning oqibatlari, boylikka hirs qo'ymaslik va ilm olishning afzalliliklari haqidagi ishchonchli dalillar yotadi. Biz farzandlar tarbiyasida hadislarda ifodalangan g'oyalarga asoslanib ish ko'rsak, vatanimiz kelajagi bo'lgan barkamol avlodni voyaga yetkazgan bo'lamic.

Adabiyotlar:

- 1.A.Yassaviy. Devoni hikmat. T.1991.
2. Hadis va hayot. Journal. 2003.
3. Literature. Textbook of the Academic Lyseum.T. 2013.